



ZULFIYA - SOG'INCH VA SADOQAT KUYCHISI

¹Karimova Shahodat Davronbek qizi

1-bosqich talabasi, Berdaq nomidagi qoraqalpoq davlat universiteti,
Nukus,

²Axmedova Sarvinoz Alimardon qizi

2-bosqich talabasi, Berdaq nomidagi qoraqalpoq davlat universiteti,
Nukus.

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7905769>

ARTICLE INFO

Received: 01st May 2023

Accepted: 07th May 2023

Online: 08th May 2023

KEY WORDS

Poeziya, vazn, erkin she'r,
ramz, obraz, o'xshatish,
jonlantirish.

ABSTRACT

Ushbu maqolada O'zbek xalqining sevimli ijodkori, taniqli jamoat arbobi O'zbekiston xalq shoirasi Zulfiya Isroilovaning hayot yo'li va faoliyati yoritilgan bo'lib, uning she'rlaridagi vatanparvarlik, oliyjanoblik, muhabbat, sog'inch, hijron va sadoqat kabi tushunchalar haqida fikr yuritiladi.

Zulfiya Isroilova - taniqli va iqqidorli o'zbek shoirasi. Yorqin rassom oddiy inson qalbini erkin his qilgan, mehnatkash, sharq ayolining jamiyatdagi teng huquqi uchun mardonavor kurashgan ayol. Uning boy adabiy merosi va faol jamoat arbobi sifatidagi faoliyatida o'zbek ayollarining salohiyati naqadar yuksak ekanini ko'rishimiz mumkin. Shoir yorqin ijodi bilan millionlab kishilarga ezgulik, muhabbat va sadoqatdan saboq berdi. Uning sherlarini o'qir ekanmiz, o'zbek ayoliga xos va mos bo'lgan hayo, ibo, insoniylik, sadoqat, muhabbat kabi tuyg'ular yuragimizda o'z-o'zidan jo'sh urib ketadi. Shundan bo'lsa kerak, uning she'rlari qalbimizda hanuzgacha jaranglaydi.

"Muhtaram yurtboshimiz" Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch " kitobida o'z hayoti, ish faoliyati davomida ma'naviy jasorat ko'rsatgan, tarix va kelajak oldida mas'uliyatni his etgan millatning yetuk kishilarini xaqiqiy vatanparvar, mardlikka qodir shaxslar deydi. "Nafaqat o'z she'rlari, balki butun hayoti o'zbek ayolining ma'naviy qiyofasini namoyon etgan atoqli shoiramiz Zulfiyaxonimni ham men ana shunday fidoyi insonlar qatoriga qo'shgan bo'lardim", - deb yozadi davlatimiz rahbari. " [1.167]

Zulfiya XX asr o'zbek she'riyati osmonida chaqnab chiqqan Zuhro yulduzidir. Shoiraning yoqimli lirik sozi sadolari o'zbek she'riyati navolari orasida yaqqol ajralib turadi, ko'ngillarga yorqin ruh bag'ishlaydi, nur ulashadi. She'riyat olamiga har bir ijodkor o'z qo'shig'i bilan kirib keladi. Zulfiya she'riyatga vafo qo'shig'i bilan kirib keldi va bu qo'shiq ayol sadoqatining yuksak tarannumiga aylandi. O'zbek ayolining boy va rang barang ichki dunyosi, ayol erki, ayol qalbi, sadoqat va vafo, visol va hijron, pok sevgi, yorug' muhabbat, sevikli yor nashidolari va iztiroblari, ona baxti va armonlari shoir ijodining hayotbaxsh sarchashmalaridandir.

Zulfiya Isroilova xalqimizning atoqli va ardoqli vakili, O'zbekiston xalq shoirasi, xalqaro "Nilufar", Javoharlar Neru nomidagi davlat mukofotlari sohibasidir.

U 1915-yili Toshkent shahrining qadimiy Degrez mahallasida tavallud topgan. Shoiraningning dastlabki she'rlari "Hayot varqlari" nomi bilan 1932 -yilda bosilib chiqqan.



Shundan so'ng shoiraning "She'rlar" va "Qizlar qo'shig'i"(1938), "Uni Farhod der edilar"(1943), "Hijron kunlarida" (1944), "Dalada bir kun" (1948), "Tong qo'shig'i" (1953), "Kuylarim sizga" (1965), "O'ylar" (1965), "Shalola" (1974) kabi o'nlab she'riy to'plamlari chop etildi .

"Shoiraning she'riyatiga xos tomoni - poeziyaning hamma turlarida va hamma vaznlarida qalam tebrata olishidadir. Siyosiy lirika ham muhabbat o'lanlari ham, minbar she'ri ham, erkin she'r ham birdek o'z o'rnida, o'z tasirbaxshligida, o'z jarangdorligida. Zulfiyaxonim she'rlari ko'proq voqeaband, manzarali, ko'z oldingizda hayotning bir parchasi, bir bo'lagi yarqirab turgani turgan. Bu birinchi galda katta mahorat belgisi, yetuklik belgisi, hayotga yaqinlik belgisidir .Asllik, ya'ni taqliddan yiroqlik ham shoira she'riyatining yaxshi xususiyatidir." [2. 8.]

Zulfiya ijodida muhabbat, hijron va sadoqat to'g'risidagi she'rlar salmoqli o'rin egallaydi. Negaki, u o'zining ikki kishi uchun yashagan uzoq umri davomida ayriliqning ellik ikki yillik yo'lini bosib o'tadi. Shuning uchun ham hijron kuychisi va sadoqat timsoliga aylanadi . U atoqli o'zbek shoiri Hamid Olimjon bilan oila qurgan. Biroq, ular orzularga to'la hayot kechirayotgan pallada - 1944 - yili mashina halokati tufayli turmush o'rtog'idan ayriladi. Shoiraning nihoyasiz ayriliqning hasratlari aks etgan she'rlarida badbinlik, umidsizlik, noshukurlik tuyg'ulari yo'q. Uning hijronzoda she'rlarida suyguvchi suygani bois ayriliqdan qattiq kuyguvchi ammo hayotdagi yorug'likni ko'ra olguvchi ko'rganiga shukronalik qilguvchi ayol fazilatlar aks etgan. Bu fazilatlarni shoiraning "Sen qaydasan yuragim" she'rida ko'rishimiz mumkin.

Qalb bo'lganda yiroqda
Iroda ekan ojiz.
Do'stlar ham ko'p atrofda,
Ammo sen yakka - yolg'iz ...

Ishqqa maskan yuragim,
Topib ber, deb qistaydi.
Nima qilay, berahm -
Ruhim seni istaydi.[3. 33]

Ushbu she'r shoiraning qalbidagi og'ir hasrat - yordan judolik dardlarini ifoda etadi. Unda muallif sevgan kishisi o'zi bilan birga uning qalbini ham olib ketganini, shu bois qalbidan yiroq inson irodasi ham ojiz bo'lib qolishini aytadi . Atrofda do'stlarning ko'p bo'lishi ham uni o'zini yolg'iz his etishdan asrab qololmaydi. Shoiraning dili to'la hasrat faqat yorigagina atalgan so'zlari yuragini kuydirib, ko'zlaridan yoshlar bo'lib to'kiladi .U taqdirga bo'yin eggani bilan berahm ruh yorimni topib ber deya turib olgan bo'lsa, bunga ne chora qilsin ?

Zulfiyaning yana bir ayriliqning hasratlari aks etgan she'ri bu - "Bahor keldi seni so'roqlab" she'ridir. Bu she'ri ham shoiraning baxt va bahor haqida jo'shib kuylagan yori - turmush o'rtog'i Hamid Olimjonning hayotini, she'rlarini eslatadi. Lekin bu she'rning boshqa she'rlardan farqi ayriliq va judolik alamlarini ramziy obrazlarda tasvirlashida. Shoira she'rni yozish jarayonida tabiatga murojaat qiladi, uni xayolan suhbatdoshiga aylantiradi.

Mana, qimmatligim, yana bahor kelib,



Seni izlab yurdi, kezdi sarsari,
Qishning yoqasidan tutib so'radi seni,
Ul ham yosh to'kdi-yu, chekildi nari.

"Qani o'sha kuychi, xayolchan yigit?
Nechun ko'zingda yosh, turib qolding lol.
Nechun qora libos, sochlaringda oq,
Nechun bu ko'klamda sen parishonhol? "

Ko'rib turganimizdek she'r bahor faslining kirib kelishi bilan boshlanadi. Odatda ko'klam kelishi quvonch - u shodlik bilan kutib olinsa bu bahor alam va ko'z yosh bilan kutib olinadi. Shoiraning turmush o'rtog'ni izlab kelgan bahor shabboda bo'lib qir-adirlarni, bog'larni qidirib uni topolmagach bo'ronga aylanib toshlarni qulatib na'ra tortganini aytadi. Bu bilan shoira o'z qalbidagi holatni ifodalab bergan. Ya'ni suyukli kishisidan, ikki farzandining otasidan ayrilish, judolik alamlarini ramziy obrazlarda ko'rsatgan. Shoirini topolmay sarson kezgan bahor uning uyiga yotog'iga kirib keladi. Shoirani so'roqqa tutib qalb yaralarini yangilaydi.

Qanday javob aytay, loldir tillarim.

Ana shunday holatga tushgan shoira bahorni yorining qabriga olib boradi. U esa haqiqatni bilgach, alamdand tutiqib daraxtga, endigina uyg'onayotgan kurtaklarga dardini aytib ko'z yosh to'kadi. Bu endi shamollar esib, yomg'ir yog'ib turgan holatning ifodasi. Shu tariqa shamollardan tebranib, yomg'ir suvlarida yuvilgan gul-u rayhonlarning atri olamni tutib, go'yo bir qo'shiq kuylayotganday mayin, hayotbaxsh ohanglar taraladi. Demak, lirik qahramonning bahor tufayli qalbida uyg'ongan dard, alam - u azoblari o'sha gullar atridan, ya'ni bahorning bor atrofga go'zallik, yoshlik, yashillik bag'ishlashidan taskin topib, tarqalib, yorug'likka, umid va orzularga yana quchoq ochadi. Shoira shundan so'ng "O'lmagan ekansan, jonim, sen hayot " deya she'rni baland pardalarga ko'tarib, bag'oyat hayotbaxsh, tantanavor yakun yasaydi.

Hijroning qalbimda, sozing qo'limda,
Hayotni kuylayman, chekinar alam.
Tunlar tushimdasan, kunduz yodimda,
Men hayot ekanman, hayotsan sen ham ! [4. 30]

She'rning ana shunday yakun topishi go'yoki qishning sovuq, qorong'u kunlaridan keyin bahor fasli bor tabiatga yorug'lik, yasharish bag'ishlaganiga o'xshash qiyosiy, ramziy tasavvur beradi. Bu yerda shoiraning badiiy mahoratiga, ya'ni ramzlardan, o'xshatish va jonlantirish kabi she'r san'atlaridan mohirona foydalana bilganiga qoyil qolasiz.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Zulfiyaxonim o'zbek she'riyatida o'ziga xos o'ringa ega shoira bo'lishi bilan birga, shu xalqning barcha oliyjanob hislatlariga ega ayol bo'lgan. Uning she'rlari vatanparvarlik, hayotni sevish, saodatli va yorug' kunlarning qadriga yetish bir-birimizni asrab-avaylashdan saboq beradi. Yurtimizda uning she'riy to'plamlari, kitoblarini o'qimagan tong, bahor, tabiat, mehr va sadoqat kuychisining nafis va dilbar samimiyatga to'la she'rlaridan zavqlanmagan kitobxon bo'lmasa kerak. Shoira o'z she'rlaridan birida shunday yozgan edi:

E'zozlar, ardog'lar uchun tashakkur,



Asli Siz - oftobim, men ziyosiman.

Tonglaringiz kulsin dorilomon, hur,

Baxtim shul - o'zbekning Zulfiyasiman! [5. 5]

Haqiqatdan ham Zulfiya o'zbek xalqining suyukli qizi, oz'bekning Zulfiyasi bo'lib, muhabbat va sog'inch kuychisi bo'lilib, mangu qalbimizda yashaydi.

References:

1. Islom Karimov."Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" (ikkinchi nashr). Toshkent." Ma'naviyat "-2010.
2. Zulfiya. Asarlar ikki to'mlik. Birinchi to'm. Toshkent. G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at, nashriyoti .1974.
3. Zulfiya."Yillar sadosi saylanma". Toshkent.G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti -1995.
4. Zulfiya. Saylanma. Toshkent. "Akademnashr "- 2015.
5. Zulfiya." Bahor keldi seni so'roqlab".Toshkent .Yangi asr avlodi .2016.